

YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 57 232,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 9,6 %ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-sentabrdagi narxlarga nisbatan 112,6 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 11,0 %ga yetdi.




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YAHM	46 379,1	57 232,3	109,6
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	44 309,3	55 074,9	109,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2 069,8	2 157,4	110,0
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	44 309,3	55 074,9	109,6
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10 276,8	12 659,4	103,9
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	23 125,3	29 033,9	111,5
	sanoat	21 155,4	26 333,9	110,6

		Mlrd. so‘m		O‘sish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan %da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	1 969,9	2 700,0	121,3
	Xizmatlar	10 907,2	13 381,6	111,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 607,1	3 256,3	110,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 992,1	2 579,2	117,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	6 308,0	7 546,1	109,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 19 674,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,5 %ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,2 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 23,0 %ni, sanoat tarmog‘i 47,8 %ni, qurilish 4,9 %ni va xizmatlar sohasi 24,3 %ni tashkil qildi.




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	95,5	96,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,5	3,8
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	23,2	23,0
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	52,1	52,7
	sanoat	47,7	47,8
	qurilish	4,4	4,9
	Xizmatlar	24,7	24,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5,9	5,9
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,5	4,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	14,3	13,7




**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiqa nisbatan %da)**

2020- yil





2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 23,0 %), sanoatda – 110,6 % (47,8 %), qurilishda – 121,3 % (4,9 %), xizmatlar sohasida – 111,0 %ni (24,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,4 % (5,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,9 % (4,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 109,0 %dan (13,7 %) iborat bo'ldi.




Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2020- yil yanvar-sentyabr oylarida – 0,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,8 f.p. (2020- yil yanvar-sentyabr oylarida – 1,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,9 f.p., savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 0,6 f.p. (2020- yil yanvar-sentyabr oylarida salbiy 0,1 f.p.), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 0,8 f.p. (2020- yil yanvar-sentyabr oylarida – 0,2 f.p.), boshqa xizmat tarmoqlari – 1,2 f.p. (2020- yil yanvar-sentyabr oylarida salbiy 0,2 f.p.) hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2020- yil yanvar-sentabr oylarida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissi




2021- yil yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2020- yil yanvar-sentabrdagi narxlarga nisbatan 112,6 %ni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 118,6 % va qurilish tarmog'ida – 113,0 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 47,8 %ni tashkil qildi (2020- yilning mos davrida – 48,9 %).

YAHMdagi ulush o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan izohlanadi.